

TDIU Samarqand filiali Xotin-qizlar maslahat kengashining 2025 -yil mart oyi uchun bajarilgan ishlar hisoboti

1. Tadbir - Joriy yilning 1-mart kuni Xotin-qizlar maslahat kengashi tashabbusi bilan "Lider qizlar" klubi tomonidan talaba-qizlar uchun "Munozara" intellektual o'yini tashkil etildi. O'zaro bahslashuv natijasida quyidagi jamoalar g'oliblikni qo'lgan kiritishdi:

🥇 1-o'rin. Taraqqiyot jamoasi;

🥈 2-o'rin. Iqtisodchi jamoasi;

🥉 3-o'rin. Qora oqqush jamoasi;

Tanlovda ishtirok etgan barcha talaba-qizlar tashakkurnoma va go'lib jamoalar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.



2. Tadbir -Joriy yilning 1- mart kuni Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali Xotin-qizlar maslahat kengashi va "Qizlarjon" klubi a'zolari "Tillar" kafedrası bilan hamkorlikda talabalar turar joyida qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash hamda ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida mahorat darsi tashkil etdi.Ushbu dars doirasida Qasimova Saodat Mirsaidovna, Tojiboeva Nargiza Jo'raqulovna, Nosirova Shoira Olimovna va Mavlyanova Nilufar Suvonqulovna tomonidan milliy taomlar shohi bo'lmish palov pishirish bo'yicha mahorat darsi o'tkazildi.




3.Tadbir 2025- yil 6-mart kuni TDIU Samarqand filiali “Tabiiy, ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi professor-o‘qituvchilari dotsent E.I.Xamdamova, katta o‘qituvchi (PhD) E.Z.Isaqova, Tyutor Z.Muxammadxonovalar DXSh va TTJ ga borib, talaba-qizlarning yashash sharoitlari bilan tanishishdi. Shu bilan birga u yerdagi oshxona, yuvinish xonalari va yashash xonalari bilan yaqindan tanishib, toza, ozoda saqlashlarini, gigiyena talablariga, odob-axloq qoidalariga doimo rioya qilishlari haqida talaba qizlarga maslahatlar, yo‘l-yo‘riqlar berdilar.



4.Tadbir 2025 yil 14-mart kuni TDIU Samarqand filialida Xotin-qizlar masalahat kengashi tashabbusi bilan “Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bugungi kunning dolzarb muammosi” mavzusida seminar-treynig tashkil etildi. Seminar-treynigda psixolog N.Ataboeva, dotsent E.Xamdanova, TTM Z.Mamatxonova. “Buxgalteriya hisobi va maoliya” fakulteti dekan maslahatchisi K.Mirfayzieva va talaba qizlar ishtirok etishdi. Xotin-qizlar masalalari bo'yicha direktor maslahatchisi E.Z.Isaqova Xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga yangicha yondoshuv mexanizmi to'g'risida ishtirokchilarga tushunchalar berib, mahallada ish olib boruvchi barcha hamkor tashkilotlarning mas'ullari, xususan xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassislar, profilaktika inspektorlari hamda psixologlarning birdamlikda ish olib borishi zarurligi haqida so'z yuritdi

Jumladan, aholi orasida oila turmush doirasida huquqbuzarlik sodir etgan fuqarolar olib borilishi lozim bo'lgan profilaktik ishlar va ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar bilan tizimli ishlashni yo'lga qo'yish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni barvaqt oldini olish hamda turli salbiy illatlarga qarshi kurashishga doir so'z yuritildi. So'ngra psixolog N.Ataboeva talaba-qizlar o'rtasida “O'zligingni angla” mavzusida seminar-treynig mashg'ulotini o'tkazdi.



5. Tadbir 2025 yil 12-mart kuni Oliy ta'lim muassasalari talaba qizlari o'rtasida "Milliy qadriyatlar qizlar nigohida" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Ushbu tanlovda qizlarimizning milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarimizga bo'lgan munosabati, bilim va mahorati sinovdan o'tkazildi. Tanlovda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali MT-224 guruh talabasi Maxmanazarova Mushtariy faol ishtirok etdi va esdalik sovg'asi bilan taqdirlandi.



6. Tadbir 2025 yil 20-mart kuni Samarqand shahrida o'tkazilgan Navruz umumxalq bayram saylida TDIU SF Xotin-qizlar maslahat kengashi maslahatchilari faol ishtirok etishdi.



**TDIU SF Xotin-qizlar masalalari bo'yicha
direktor maslahatchisi:**

E.Z. Isaqova